



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

|   |     |
|---|-----|
| <b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....                        | 7   |
| <b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.   | 18  |
| <b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....   | 21  |
| <b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....   | 24  |
| <b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....                                     | 28  |
| <b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....  | 33  |
| <b>Vaxtohunova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....  | 36  |
| <b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....                          | 41  |
| <b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....   | 45  |
| <b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....  | 50  |
| <b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....                                      | 53  |
| <b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....   | 56  |
| <b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....   | 62  |
| <b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан)..... | 68  |
| <b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....   | 72  |
| <b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....                            | 76  |
| <b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....   | 80  |
| <b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....   | 85  |
| <b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....                | 89  |
| <b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....                             | 97  |
| <b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....                                | 100 |
| <b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....  | 104 |
| <b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялли ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....  | 108 |
| <b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....                               | 111 |
| <b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....  | 115 |
| <b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....  | 119 |
| <b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....  | 125 |
| <b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....             | 129 |
| <b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....              | 136 |
| <b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....                      | 140 |

|   |            |
|---|------------|
| <b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....  | <b>147</b> |
| <b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.   | <b>154</b> |
| <b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....  | <b>159</b> |
| <b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....  | <b>165</b> |
| <b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....   | <b>169</b> |
| <b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....  | <b>175</b> |
| <b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....  | <b>183</b> |
| <b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....  | <b>188</b> |
| <b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....  | <b>192</b> |
| <b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....  | <b>197</b> |
| <b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....                                  | <b>203</b> |
| <b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....                     | <b>211</b> |
| <b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....  | <b>216</b> |
| <b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....   | <b>221</b> |
| <b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....  | <b>225</b> |
| <b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....   | <b>230</b> |
| <b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....  | <b>238</b> |
| <b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....  | <b>241</b> |
| <b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli..... | <b>246</b> |
| <b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....  | <b>252</b> |
| <b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....   | <b>255</b> |
| <b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....  | <b>259</b> |
| <b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....  | <b>264</b> |
| <b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....  | <b>268</b> |
| <b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....   | <b>272</b> |
| <b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....  | <b>276</b> |
| <b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....  | <b>280</b> |
| <b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....   | <b>284</b> |
| <b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....   | <b>288</b> |
| <b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....  | <b>292</b> |
| <b>Rejarov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....   | <b>297</b> |

10. World Bank (2022). Human Capital Index 2022: Human Potential and Economic Growth. Washington D.C.: World Bank Group. – Inson kapitalining iqtisodiy o‘shidagi o‘rni va boshqaruv salohiyatini baholashning global ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

**UDK: 338.4**

**MAHALLIY XOMASHYO BAZASIGA EGA SANOAT KORXONALARIDA  
INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR VA ULARNI  
OSHIRISHNING VERTIKAL INTEGRATSIYA ASOSIDAGI OPTIMALLASHTIRILGAN  
MODELI**

**ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В  
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ С МЕСТНОЙ СЫРЬЕВОЙ БАЗОЙ, И  
ОПТИМИЗИРОВАННАЯ МОДЕЛЬ ИХ РОСТА НА ОСНОВЕ ВЕРТИКАЛЬНОЙ  
ИНТЕГРАЦИИ**

**FACTORS DETERMINING INVESTMENT EFFICIENCY IN INDUSTRIAL  
ENTERPRISES WITH LOCAL RAW MATERIAL BASE AND AN OPTIMIZED MODEL  
OF THEIR INCREASE BASED ON VERTICAL INTEGRATION**

**Qayumova Shodiya Sobir qizi** Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti “Moliya va kredit” kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda vertikal integratsiya jarayonining investitsion natijalarni oshirishdagi roli ilmiy asosda ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya samaradorligi, mahalliy xomashyo bazasi, vertikal integratsiya, qiymat zanjiri, tranzaksiya xarajatlari, tannarxni optimallashtirish, IRR, qo‘shilgan qiymat, ishlab chiqarish klasterlari, investitsiya riski, texnologik modernizatsiya, resurs barqarorligi.

В данной статье на основе системного подхода анализируются факторы, определяющие эффективность инвестиций в промышленных предприятиях с местной сырьевой базой, и научно раскрывается роль процесса вертикальной интеграции в повышении результатов инвестиций.

**Ключевые слова:** эффективность инвестиций, местная сырьевая база, вертикальная интеграция, цепочка создания стоимости, транзакционные издержки, оптимизация затрат, внутренняя норма доходности (IRR), добавленная стоимость, производственные кластеры, инвестиционный риск, технологическая модернизация, ресурсоустойчивость.

This article analyzes the factors determining investment efficiency in industrial enterprises with a local raw material base based on a systematic approach and scientifically reveals the role of the vertical integration process in increasing investment results.

**Keywords:** investment efficiency, local raw material base, vertical integration, value chain, transaction costs, cost optimization, IRR, added value, production clusters, investment risk, technological modernization, resource sustainability

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish jarayonida investitsiya faoliyatining samaradorligi hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Mahalliy xomashyo bazasiga ega ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo‘lib, ularning modernizatsiya, texnologik yangilanish va qo‘shilgan qiymat yaratish

salohiyati mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Biroq xomashyo narxlarining o’zgaruvchanligi, ta’minot zanjiridagi uzilishlar, tashqi logistika xarajatlarining ortishi va bozor raqobatining kuchayishi investitsiyalarning qaytaruvchanligini pasaytirishi mumkin. Shu bois mahalliy resurslarga tayanadigan korxonalarda investitsiya samaradorligini belgilovchi omillarni chuqur tahlil qilish hamda ularni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi. So’nggi yillarda ishlab chiqarish faoliyatida vertikal integratsiya konsepsiyasi investitsion samaradorlikni oshirishning muhim strategik vositasiga aylandi. Vertikal integratsiya xomashyo qazib olishdan tortib tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo’lgan bosqichlarning yagona boshqaruv ostida birlashtirilishini anglatadi. Ushbu mexanizm korxonaga qiymat zanjiri bo’ylab to’liq nazorat imkonini yaratadi, xarajatlarni optimallashtiradi, tranzaksiya va logistika risklarini kamaytiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Natijada korxonaning investitsion loyihalarining NPV, IRR, ROI kabi asosiy ko’rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, mahalliy xomashyo bazasiga ega tarmoqlarda — to’qimachilik, metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoatida — vertikal integratsiya qo’shilgan qiymatni 2–5 baravar oshirish, tannarxni 15–35 foizga qisqartirish va investitsion barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Biroq O‘zbekiston sharoitida vertikal integratsiyaning investitsiyalar samaradorligiga ta’siri yetarlicha chuqur o‘rganilmagan, mavjud tadqiqotlar ko‘proq umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili bilan cheklanadi. Mahalliy xomashyo resurslariga tayanadigan korxonalarda investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar majmuasi murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, ularni tizimli yondashuv asosida o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Xususan, xomashyo narxi o‘zgaruvchanligi, transport-logistika xarajatlari, qo’shilgan qiymat ulushi, texnologik rivojlanish darajasi, korxonalar integratsiya ko‘lami va boshqaruv samaradorligi kabi parametrlar investitsiya natijalariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Mazkur omillar o‘zaro bog‘langan holda investitsiya samaradorligining final natijasini shakllantiradi.

Investitsiya samaradorligi iqtisodiyotda kapitalning joylashtirilishidan olinadigan iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy natijalar yig‘indisini aks ettiruvchi murakkab ko‘p omilli kategoriya hisoblanadi. J. Keynesning “Marginal Efficiency of Capital” konsepsiyasiga ko‘ra, investitsiya qarorlari kapitaldan kutilayotgan daromadlar bilan foiz stavkalari o‘rtasidagi nisbat asosida shakllanadi. [1] Neoklassik maktab vakillari — R. Solow, [2] E. Denison [3] kabi olimlar esa investitsiya samaradorligini ishlab chiqarish funksiyalari, xususan Cobb–Douglas modeli orqali izohlab, investitsiyalarning texnologik o‘rish bilan bevosita bog‘liqligini asoslab bergan. [4] Zamonaviy investitsiya tahlilida keng qo‘llaniladigan NPV, IRR, PI, EVA, ROIC kabi ko‘rsatkichlar kapitalning qaytaruvchanligini baholashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Miller va Modilyanining 1958-yildagi kapital tuzilmasi nazariyasi esa korxonalar uchun moliyalashtirish manbalarining tarkibi investitsiyaviy samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. [5]

Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligi faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki xomashyo narxlarining barqarorligi, logistika xarajatlari, qo’shilgan qiymat zanjiridagi ulush, texnologik modernizatsiya darajasi, import o‘rnini bosish salohiyati va mahsulot diversifikatsiyasi kabi omillar bilan ham belgilanadi. Bu korxonalarda investitsion natijalarning shakllanishi resurs, texnologik va tashqi muhit omillari o‘zaro ta’sirining murakkab tizimini tashkil etadi. Shuning uchun investitsiya samaradorligini mahalliy xomashyo sharoitida izohlash — uni tizimli, ko‘p omilli jarayon sifatida talqin qilishni talab etadi.

O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining katta qismi mahalliy xomashyoga asoslanadi: paxta-to‘qimachilik klasterlari, metallurgiya, sement, kimyo, oziq-ovqat va qurilish materiallari sanoati shular jumlasidandir. Jahon Banki va OECD tadqiqotlariga ko‘ra, xomashyo narxining barqarorligi investitsiya samaradorligining asosiy determinantlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish tannarxining 15–40 foizgacha qismini logistika xarajatlari tashkil etadi. Xomashyo importiga qaram korxonalar esa global narx tebranishlari va yetkazib berish zanjiridagi uzilishlar tufayli investitsion risklarning oshishiga duch keladi. [6] Shunga ko‘ra, mahalliy xomashyo resurslarining mavjudligi korxonaga nafaqat barqaror ta’minot, balki narxlar o‘zgarishiga chidamlilik, tashqi ta’minotchilarga

bog‘liqlikning kamayishi va tannarxni barqaror prognozlash imkoniyatlarini yaratadi. Bu omillar investitsion loyihalarning NPV va IRR ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mahalliy xomashyo resurslarining investitsiya samaradorligiga ta‘sirini chuqur anglashda vertikal integratsiya nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. *Vertikal integratsiya* — xomashyoni qazib olishdan tortib, uning qayta ishlanishi, tayyor mahsulot ishlab chiqarilishi va bozorga yetkazilguniga qadar bo‘lgan jarayonlarning yagona boshqaruv ostida birlashtirilishini anglatadi. Bu jarayonni nazariy jihatdan asoslab bergan bir nechta ilmiy maktablar mavjud.

Birinchiidan, tranzaksiya xarajatlari nazariyasi korxonalar integratsiyaga bozor sharoitida yuzaga keladigan kontraktlashuv, vositachilik va uzilish xavflari bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish maqsadida intilishini ta‘kidlaydi. Williamsonning tadqiqotlariga ko‘ra, vertikal integratsiya tranzaksiya xarajatlarini 20–50 foizgacha qisqartirishi mumkin.

Ikkinchiidan, Porterning qiymat zanjiri nazariyasi investitsiya samaradorligini oshirish imkoniyati qiymat yaratish zanjiridagi har bir bosqichda mavjudligini ko‘rsatadi. Integratsiya orqali korxonalar qo‘shilgan qiymat ulushini oshiradi, tannarxni pasaytiradi va bozor pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Uchinchiidan, resursga asoslangan qarash nazariyasi korxonani noyob resurslar, shu jumladan mahalliy xomashyo asosida raqobat ustunligiga erishishga undaydi. Mahalliy xomashyo zanjirini o‘z ichiga olgan integratsiya korxonaga strategik ustunlik yaratib, investitsiyaning qaytaruvchanligini oshiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda vertikal integratsiyaning investitsiya samaradorligiga ta‘siri quyidagi asosiy mexanizmlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlangan: [7]

✓ *Xarajatlarning kamayishi*: logistika xarajatlari 15–35 foizgacha qisqaradi, ta‘minotchilar o‘rtadagi marjasi bartaraf etiladi, importga bog‘liqlik keskin kamayadi.

✓ *Qo‘shilgan qiymat ulushining oshishi*: integratsiyalashgan korxonalar qo‘shilgan qiymatning 40–70 foizgacha bo‘lgan qismini o‘zida saqlaydi; integratsiya qilinmaganlarda bu ko‘rsatkich 10–25 foiz atrofida.

✓ *Risklarning kamayishi*: narxlar tebranishining kamayishi, ta‘minotdagi uzilishlar ehtimolining pasayishi va pul oqimlari barqarorligining oshishi investitsiya risklarini keskin kamaytiradi.

✓ *Moliyaviy samaradorlikning ortishi*: empirik tadqiqotlar integratsiya qilgan korxonalarda IRR 5–12 punktga yuqori ekanini, EVA ijobiy natijaga erishish ehtimoli 2–3 baravar ortishini, ROI esa 20–40 foizga yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi.

✓ *Innovatsiya va texnologiya joriy etish tezligining oshishi*: integratsiya qilgan korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etishda 1.5–2 baravar tezroq harakat qiladi.

Resurs omillari

Texnologik omillar

Tashqi muhit omillari

Vertikal integratsiya omillari

Moliyaviy omillar

### 1-rasm. Investitsiya samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar [8]

Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u turli iqtisodiy, texnologik, tashkiliy va institutsional omillarning o‘zaro ta‘sirida yuzaga keladi. Ushbu omillarni nazariy jihatdan tizimlashtirish investitsiya samaradorligini aniqlovchi asosiy determinatlarni aniqlash, ularning ta‘sir

mexanizmini tushuntirish hamda ularni boshqarishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni bir nechta konseptual bloklarga ajratish mumkin.

*Resurs omillari* mahalliy xomashyo bazasiga ega korxonalar faoliyatining eng muhim poydevorini tashkil etadi. Ular quyidagi tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

✓ Xomashyoning mavjudligi va sifati – xomashyoning yetarli hajmda bo‘lishi, sifat standartlariga mosligi va barqaror ta’minlanishi korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilaydi.

✓ Narx barqarorligi – xomashyo narxlarining keskin tebranishi investitsiya loyihalarining moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mahalliy resurslar narxining barqarorligi esa NPV va IRRning prognoz qilinishini osonlashtiradi.

✓ Ta’minot zanjiri izchilligi – xomashyo yetkazib berishdagi barqarorlik ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi va investitsiya risklarini kamaytiradi.

Bu omillar investitsiya samaradorligining resurs bazasini mustahkamlaydi va korxonaga uzoq muddatli strategik afzallik beradi. Ayniqsa, xomashyo narxlarining ichki bozorda tebranish amplitudasi past bo‘lsa, investitsiya loyihalarining xavf darajasi sezilarli qisqaradi.

*Texnologik omillar* investitsiya samaradorligining yuqori bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan modernizatsiya va innovatsion rivojlanish darajasini belgilaydi. Ular quyidagilarni qamrab oladi:

✓ Modernizatsiya darajasi – zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tannarxni kamaytiradi, unumdorlikni oshiradi, energiya tejamkorligini yaxshilaydi.

✓ Avtomatlashtirish – ishlab chiqarish jarayonining avtomatlashtirilishi inson omili bilan bog‘liq risklarni kamaytiradi va mehnat unumdorligini oshiradi.

✓ Energiya samaradorligi – energiya resurslaridan tejamkor foydalanish tannarxni pasaytiradi, ishlab chiqarish barqarorligini oshiradi.

Yuqori texnologik daraja investitsion loyihalarning aniq natija berish ehtimolini kuchaytiradi va kapital qo‘yilmalarning qaytaruvchanligini tezlashtiradi.

*Tashqi muhit* korxonaning investitsiya faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan makroiqtisodiy sharoitlarni aks ettiradi:

✓ Global narxlar dinamikasi – xomashyo va mahsulotlar bozoridagi jahon narxlarining tebranishi korxonaning rentabelligiga ta’sir qiladi.

✓ Transport-logistika infratuzilmasi – logistika tizimining rivojlanganligi transport xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotni bozorlarga tez yetkazishni ta’minlaydi.

✓ Raqobat sharoiti – ichki va tashqi bozordagi raqobat korxonani samaradorlikni oshirishga, diversifikatsiya qilishga, innovatsiyalarni joriy etishga undaydi.

Bu omillar esa korxonalar faoliyatining tashqi konturini belgilaydi va investitsiya qarorlarining umumiy barqarorligini shakllantiradi.

*Vertikal integratsiya* mahalliy xomashyo bazasiga ega korxonalar uchun eng muhim strategik mexanizmlardan biridir va quyidagi omillar orqali investitsiya samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi:

✓ Qiymat zanjiri bo‘ylab qo‘shilgan qiymat ulushi – integratsiya qilgan korxonalar zanjirining ko‘proq bosqichini egallab, qo‘shilgan qiymatning katta qismini o‘zida jamlaydi.

✓ Ichki tranzaksiya xarajatlari – ta’minotchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan vositachilik, kontraktlashuv, uzilishlar xavfi kabi xarajatlar kamayadi.

✓ Integratsiya chuqurligi – qayta ishlashning turli bosqichlarini o‘z ichiga olgan chuqur integratsiya investitsiya natijalarini barqarorlashtiradi.

Vertikal integratsiya aynan ushbu omillarni optimallashtirish orqali investitsiya samaradorligini kompleks oshiruvchi mexanizm sifatida maydonga chiqadi. U qiymat zanjiri uzluksizligini ta’minlaydi, xarajatlarni qisqartiradi, risklarni kamaytiradi va rentabellikni oshiradi.


*Moliyaviy omillar* investitsiya samaradorligining yakuniy moliyaviy ko‘rinishini belgilaydi:

✓ Kapital tuzilmasi – qarz va o‘z mablag‘lari nisbatining optimal darajasi investitsiya xavfi va rentabelligini balanslaydi.

✓ Kredit resurslari qiymati – foiz stavkalari investitsiya loyihasining umumiy qiymati va moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir qiladi.

✓ Rentabellik ko‘rsatkichlari – investitsiya samaradorligining asosiy mezonlari bo‘lib, integratsiya darajasi, xomashyo barqarorligi va texnologik rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq.

Moliyaviy omillar investitsiyaning real moliyaviy natijasini shakllantiruvchi asosiy indikatorlar bo‘lib, ularning har biri integratsiya jarayonining iqtisodiy foydasini miqdoriy baholashga yordam beradi. Bilamizki, O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining aksariyati — to‘qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, sement, metallurgiya va kimyo sanoati — mahalliy xomashyo resurslariga tayanadi.



**2-rasm. Vertikal integratsiya darajasining investitsiya samaradorligiga ta‘siri [9]**

Vertikal integratsiya darajasining oshishi investitsiya samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari — ichki rentabellik normasi (IRR), qo‘shilgan qiymat ulushi va ishlab chiqarish tannarxining kamayishi — o‘rtasida kuchli va barqaror ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Integratsiya jarayonining chuqurlashuvi korxonada iqtisodiy, texnologik va tashkiliy samaradorliklarning bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishiga olib keladi. Aynan shu mexanizm investitsiya loyihalarining moliyaviy natijalari sezilarli darajada yaxshilanishini ta‘minlaydi.

Birinchiidan, integratsiya darajasi ortishi bilan investitsiyaning ichki rentabellik normasi izchil o‘sib boradi. Rentabellikning bunday o‘sishi korxonaning operatsion samaradorligi yaxshilangani, pul oqimlarining barqarorlashgani va resurslar ta‘minotidagi uzilishlarning kamaygani bilan izohlanadi. Xomashyo yetkazib berish zanjirining o‘zlashtirilishi kontraktlashuv xarajatlari va vositachilik xarajatlarini bartaraf etib, sof daromadning oshishiga zamin yaratadi. Natijada kapitaldan foydalanish samaradorligi kuchayadi va IRR sezilarli darajada yuqorilaydi.

Ikkinchiidan, vertikal integratsiya chuqurlashgani sari qo‘shilgan qiymat ulushi keskin ortadi. Bu jarayon Porterning “Qiymat zanjiri” konsepsiyasiga to‘liq mos bo‘lib, korxonaning ishlab chiqarish zanjiridagi faol ishtiroki kengaygani sayin qiymat yaratish bosqichlari ham ko‘payadi. Xomashyoni qayta ishlashning qo‘shimcha bosqichlarini o‘z ichiga olgan tizim yuqori marjali mahsulotlar ulushini oshiradi, oraliq vositachilikni kamaytiradi va ishlab chiqarishdan olinadigan sof qiymatning korxonaning o‘zida jamlanishini ta‘minlaydi. Natijada qo‘shilgan qiymatning umumiy tuzilmasida korxonaning ulushi ancha yuqori bo‘ladi.

Uchinchiidan, integratsiya chuqurlashgani bilan tannarxning kamayish darajasi tobora ortadi. Bunda bir nechta iqtisodiy omillar o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi: logistika xarajatlarining qisqarishi, tashqi ta‘minotga bog‘liqlikning kamayishi, bozor narxlaridagi tebranishlarning korxonaga ta‘sirining pasayishi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta‘minlanishi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlarida “economies of scale” va “economies of scope” samarasining kuchayishi hisobiga bir birlik mahsulot tannarxi izchil ravishda pasayib boradi. Mazkur tendensiyalarni tizimli ravishda baholash shuni ko‘rsatadiki, vertikal integratsiya investitsiya samaradorligini oshirishga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Integratsiya faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishini emas, balki korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi tarkibiy va strategik ustunliklarni ham yaratadi. IRRning oshishi korxonaning moliyaviy barqarorligini, qo‘shilgan qiymatning o‘sishi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini, tannarxning kamayishi esa operatsion barqarorlik va xarajatlar boshqaruvining mustahkamlanishini

ifodalaydi. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarining investitsiya samaradorligini oshirish bugungi iqtisodiy sharoitda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsiya natijalariga ta’sir etuvchi asosiy omillar — resurslar barqarorligi, texnologik daraja, tashqi muhit sharoitlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar va vertikal integratsiya jarayoni — o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ular kompleks holda korxonaning investitsiyaviy muvaffaqiyatini belgilaydi. Mazkur omillarni tizimli yondashuvda tahlil qilish investitsiya samaradorligining shakllanish mexanizmlarini chuqur ochib beradi va integratsiya strategiyasining ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, vertikal integratsiyaning investitsiya samaradorligi uchun hal qiluvchi omil ekanligi empirika va nazariya asosida tasdiqlandi. Integratsiya jarayonining chuqurlashuvi korxonaning xomashyo ta’minotiga bo‘lgan ehtiyojini barqarorlashtiradi, tranzaksiya va logistika xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, qiymat yaratish zanjirida faol ishtirokini kuchaytiradi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Natijada korxonada rentabellik ko‘rsatkichlari, qo‘shilgan qiymat ulushi va ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, investitsiya risklari esa keskin kamayadi. Ayniqsa, vertikal integratsiya darajasining oshishi bilan pul oqimlarining barqarorlashuvi investitsiyalarning moliyaviy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, integratsiya darajasining past, o‘rta va yuqori bosqichlari o‘rtasida investitsion natijalar keskin farqlanadi: yuqori integratsiyalashgan korxonalarda tannarxning 25–35 foizgacha kamayishi, qo‘shilgan qiymat ulushining 2–3 baravar ortishi va IRRning sezilarli darajada ko‘tarilishi kuzatiladi. Bu esa integratsiyaning nafaqat operatsion samaradorlik, balki strategik raqobat ustunligi yaratishdagi rolini ham yaqqol ko‘rsatadi. Shuningdek, integratsiyaning yuqori darajasi korxonalarni global narx tebranishlari, tashqi logistika uzilishlari va importga bog‘liq risklardan himoyalaydi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, vertikal integratsiya mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirishning eng samarali, eng barqaror va eng kompleks strategiyasidir. U resurslar ustidan nazoratni kuchaytiradi, ishlab chiqarish zanjirining barcha bo‘g‘inlarini yagona boshqaruv ostiga birlashtiradi, qiymat yaratish salohiyatini oshiradi va xarajatlarni optimallashtiradi. Buning natijasida korxonaning investitsion salohiyati mustahkamlanadi, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi ortadi va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati kengayadi. Tahlil asosida ko‘rishimiz mumkinki, mahalliy xomashyo imkoniyatlari mavjud bo‘lgan barcha sanoat tarmoqlarida vertikal integratsiya strategiyasini joriy etish, uni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va integratsiya darajasini investitsiya siyosati bilan uyg‘unlashtirish iqtisodiy samaradorlikning yangi darajasini ta’minlaydi. Shu tariqa vertikal integratsiya O‘zbekiston sanoat korxonalarining investitsiya samaradorligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga xizmat qiluvchi ustuvor mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Solow, R. (1956). “A Contribution to the Theory of Economic Growth.” *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
2. Cobb, C. W., & Douglas, P. H. (1928). “A Theory of Production.” *American Economic Review*, 18(1), 139–165
3. Miller, M. H., & Modigliani, F. (1958). “The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment.” *American Economic Review*, 48(3), 261–297
4. Barney, J. (1991). “Firm Resources and Sustained Competitive Advantage.” *Journal of Management*, 17(1), 99–120
5. Harrigan, K. R. (1983). “Vertical Integration Strategies.” *Academy of Management Journal*, 26(2), 397–425
6. Helfat, C., & Lieberman, M. (2002). “The Birth of Capabilities: Market Entry and the Importance of Pre-History.” *Industrial and Corporate Change*, 11(4), 725–760
7. Alvarez, R. (2002). “Vertical Integration Choices in Manufacturing Firms.” *Industrial Economics Review*, 51(3), 321–345.
8. <https://stat.uz/uz/>

9. <https://uztradeinfo.uz/>
10. <https://raqobat.gov.uz/>
11. <https://www.worldbank.org/>

**UDK: 338.3**

**ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINING IQTISODIY SIFATINING TAHLILI**

**АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКОГО КАЧЕСТВА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ИЗДЕЖЕК**

**ANALYSIS OF THE ECONOMIC QUALITY OF PRODUCTION COSTS**

**Turebekov Anvarbek Adilbekovich**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, i.f.n.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy mohiyati va ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanish orqali korxonalar faoliyatini rivojlantirish, foyda olish va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy o'sish nazariyalari, mashhur iqtisodchi olimlarning qarashlari hamda O'zbekiston sanoatining 2019–2024 yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini innovatsion texnologiyalar asosida optimallashtirish va sanoat korxonalarida ularni samarali boshqarish bo'yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik, bozor iqtisodiyoti, foyda, iqtisodiy o'sish, innovatsiya, sanoat, milliy iqtisodiyot, qo'shilgan qiymat.

В статье рассматривается экономическая сущность производственных издержек и их влияние на развитие производственного процесса в условиях рыночной экономики. Проанализированы вопросы эффективного использования производственных издержек, обеспечения прибыльности предприятий и устойчивого развития национальной экономики. Освещены теоретические взгляды известных экономистов на экономический рост и развитие, а также проведён анализ основных социально-экономических показателей промышленности Узбекистана за 2019–2024 годы на основе статистических данных. Сделаны выводы о необходимости инновационного подхода к управлению производственными затратами в промышленности.

**Ключевые слова:** производственные затраты, экономическая эффективность, рыночная экономика, прибыль, экономический рост, инновации, промышленность, национальная экономика, добавленная стоимость.

This article analyzes the economic nature of production costs and their impact on the development of the production process in a market economy. The study focuses on the efficient use of production costs as a key factor in improving enterprise performance, increasing profitability, and ensuring sustainable national economic growth. Theoretical approaches of well-known economists to economic growth are reviewed, and the main macroeconomic indicators of Uzbekistan's industrial sector for 2019–2024 are examined using statistical data. The article emphasizes the importance of innovative technologies and effective cost management in enhancing industrial efficiency.

**Keywords:** production costs, economic efficiency, market economy, profit, economic growth, innovation, industry, national economy, value added.